

YUQORI MALAKALI SPORTCHILAR TAYYORLASH TIZIMINING MAQSAD  
VA VAZIFALARI

Agzamov Sobirxon Jaxbaraliyevich

*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** *Maqolada ta'lim muassasalarida sport to'garaklarini tashkil etish hamda mashg'ulotlar olib borish jarayonlarini o'rganish, Sport mashg'ulotlarida umumiy va maxsus sport tayyorgarlik jarayonlarining ushblari va tamoyillarini tahlil etish, sportchilar umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklarining vositalari va ushblarini o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Jismoniy tarbiya, Sport, jismoniy tayyorgarlik, sog'lomlashtirish, jismoniy fazilat.*

O'zbek sportchilari halqaro sport arenalarida erishayotgan g'alabalarining asosiy omillari mamlakatimiz bo'ylab jismoniy tarbiya va sportni ommaviylashtirish bo'yicha keng islohotlar tashkil etilishining natijasidir.

Barcha viloyatlar va shaharlarda zamonaviy sport inshootlari barpo etilmoqda. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari jarayonlari zaruriy jihozlar va asboblari bilan ta'minlanmoqda.

Shu bilan birga mamlakatimiz jismoniy tarbiya va sport bo'yicha dunyoning yetakchi halqaro sport uyushmalari bilan va federatsiyalari bilan aloqalarini bog'lamoqda.

O'zbekiston Respublikasi halqaro olimpiada qo'mitasi a'zosi hisoblanib mamlakatimizda olimpiada harakatiga keng e'tibor berilmoqda. Shuning uchun o'zbek sportchilari olimpiada o'yinlarida muntazam ijobiy natijalarga erishib kelmoqdalar.

Hozirgi kunda o'zbek milliy sport turlari ham halqaro sport turlari shakllariga aylangan bo'lib bu sport turlari bilan dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlar aholisi sevib shug'ullanmoqdalar.

Yana shuni ta'kidlash mumkinki mamlakatimizda ko'plab halqaro sport musobaqalar o'tkazilib borilmoqda. Bu bilan O'zbekiston Respublikasi va o'zbek halqining jismoniy tarbiya va sport bo'yicha imkoniyatlari keng ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Keyingi yillarda maxsus ta'lim muassasalarida malakali jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlash keng yo'lga qo'yilmoqda. Ularning ta'lim tarbiya jarayonlari takomillashtirib zamonaviy jahon standartlariga muvofiqlashtirib borilmoqda.

Shuningdek jismoniy tarbiya va sportning nazariy asoslarini kengroq o'rganish, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, maxsus o'quv, uslubiy hamda ommaviy qo'llanmalar, darsliklar yaratish bo'yicha samarali tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda mamlakatimiz sportchilari ko'rsatayotgan natijalariga muvofiq umumiy reyting bo'yicha kurashchilarimiz va bokschilarimiz birinchi o'ntalik guruhda shuningdek shaxmatchi, futbolchi, yengil atletikachi va gammastikachilarimiz ham yuqori o'rinlarga egadirlar.

Buning asosiy omillari Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport tizimida olib borilayotgan islohotlar hamda yosh avlodni jismoniy barkamol va ma'naviy yetuk qilib tarbiyalash bo'yicha belgilanayotgan tadbirlar deyish mumkin.

Mamlakatimizdagi jismoniy tarbiya va sport tizimini taraqqiy ettirish halq salomatligini mustahkamlash va farovonligini oshirishga qaratilgan tadbirlarning asosini tashkil etadi.

Sportchilarning tayyorgarliklari umumiy va maxsus tayyorgarlik turlariga bo'linadi. Umumiy tayyorgarliklarda sportchilar sport turlari bo'yicha ma'naviy, nazariy, ahloqiy va uslubiy tayyorgarlik turlariga bo'linadi. Nazariy tayyorgarlik jarayonlarida sportchilar, sport turlari, sport harakatlari, texnik va taktik va jismoniy tayyorgarlik xaqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ahloqiy va ma'naviy tayyorgarlik jarayonlarida sportchilar mashg'ulotlar va musobaqalar jarayonlarida o'zlarini tuta bilishlari, ustoz va jamoadoshlariga hamda raqibiga va hakamlar hay'atiga xurmatda bo'lish kabi ahloqiy sifatlar shakllantiradi.

Uslubiy tayyorgarlik sportchilarning hakamlik qoidalarini o'rganishni hamda sportdagi natijalarni tahlil etib borishni o'rgatadi. Sportchilarning maxsus tayyorgarliklari jismoniy, texnik va taktik tayyorgarlikdan iborat bo'ladi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonlariga jismoniy fazilatlar, kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik fazilatlarini takomillashtirishdan iborat bo'ladi. Texnik va taktik tayyorgarlik jarayonlariga sport turlari harakatlarining texnikasi va taktikasi shakllantiradi.

Maxsus jismoniy tayyorgarlikning noan'anaviy uslublariga jismoniy fazilatlarini, texnik va taktik harakatlarni, mustaqil mashg'ulotlarni takomillashtirib berish ko'zda tutiladi. Shuningdek, mashg'ulotlar jarayonlarida maxsus qo'lbola moslamalardan va buyumlardan hamda sherigini qarshiliklari bilan bajariladigan mashqlardan keng foydalaniladi.

Shuningdek, mashg'ulot jarayonlari tarkibini tuzish, jismoniy yuklamalarni meyorlashda muayyan o'zgartirishlar kiritiladi. Jismoniy tarbiya va sport tayyorgarlik jarayonlarida milliy xalq o'yinlari, milliy sport turlaridan ham keng foydalanish mumkin. Milliy xalq o'yinlari va sport turlari yosh avlodni jismoniy barkamol qilish bilan birga ularni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalab, ma'naviy yetuk bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlaydi. Jismoniy va maxsus tayyorgarlik noan'anaviy uslublarining mohiyati tarbiya va sog'lomlashtirish jarayonlari samaradorligini orttirishdir.

Yuqori malakali sportchilarni tayyorlashda asosiy e'tibor trenirovka mashg'ulotlari tamoyillaridan keng foydalanishdir. Bunda sportchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash hamda sportda yuksak natijalarga erishish hisoblanadi. Sportchilarni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalashda ularning texnik va taktik tayyorgarligi, jismoniy rivojlantirilishi hamda ma'naviy, ahloqiy barkamol bo'lib yetishishlariga katta e'tibor beriladi. Texnik tayyorgarlik sport mashqlarini va harakatlarini samarali va muvaffaqiyatli bajarish qobiliyati hisoblanadi.

Trenirovka qonuniyatlari sport turlarida yuksak natijalarga intilishdir. Bu jarayonlar sportchining trenirovka mashg'ulotlarida muntazam va faol ishtirok etishi, doimo o'zini nazorat qilib borishi va sport formasini yuqori ko'rsatkichda bo'lishi bilan ta'minlanadi. Sportchining yuksak natijalariga intilishlari ularni dastlabki mutaxassislik bosqichidan boshlanadi va navbatdagi bosqichlarda bu maqsad uchun umumiy va maxsus tayyorgarlik darajalari takomillashtirib boriladi.

1. Djuraev, E. M., & Akzamov, S. D. (2020). SOME PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF HEALTH CULTURE IN STUDENTS. *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(1), 308-312.
2. Hasanov, A. T., Akzamov, S. D., & Abduraimov, D. T. (2022). Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES* ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10), 148-156.
3. Юсупов, Т., & Акзамов, С. (2022). ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ПРЫГУЧЕСТИ У БАСКЕТБОЛИСТОВ 12-14 ЛЕТ. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(23), 45-49.
4. Abulfayz, J. (2023). PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF EDUCATION OF PHYSICAL SKILLS OF YOUNG FOOTBALL PLAYERS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(02), 34-38.
5. Jakhbarovich, A. S., & Alijonovich, E. T. ANALYSIS OF INDICATORS OF PHYSICAL DEVELOPMENT OF STUDENTS OF SECONDARY SPECIAL EDUCATION INSTITUTIONS.
6. Жахбаралиевич, А. С. (2023). Мотивация На Начальном Этапе Обучения Футбола.
7. Agzamovich, M. A. (2021). Monitoring of the Motor Readiness of the Students of the National Guard Courses. *European Journal of Research Development and Sustainability*, 2(12), 108-110.
8. Avazbek, M. (2022, October). МАКТАБГАЧА ТАЛИМ МУАССАСАЛАРИДА НАРАКАТЛИ О'YINLARNI TASHKILLASHNING DIDAKTIK PRINTSIPLARI. In *E Conference Zone* (pp. 32-44).
9. Mekhmonov, R. (2022). MONITORING OF THE INFLUENCE OF HYPODYNAMIC FACTORS AND PHYSICAL PREPARATION OF STUDENTS. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 6(6), 11-20.
10. Маматов, А. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Gospodarka i Innowacje.*, 32, 40-43.
11. Aagzamovich, M. A. (2023). О 'QUVCHILAR SALOMATLIGIDA MILLIY НАРАКАТЛИ О 'YINLARNING O 'RNI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 3(31), 8-13.
12. Агзамович, М. А. (2023). ПОДВИЖНЫЕ ИГРЫ ДЛЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.
13. Маматов, А. (2023). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(7), 379-384.
14. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. *Current research journal of pedagogics*, 2(06), 85-89.



15. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).

16. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.

17. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). Science and innovation, 1(B2), 295-299.

18. Исломов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 7-11.

19. Azimkhujayevich, I. I., & Madaminovich, D. E. (2022). SCIENTIFIC AND THEORETICAL APPROACHES TO THE USE OF THE GAME METHOD IN PHYSICAL EDUCATION LESSONS FOR SCHOOLCHILDREN (PECULIARITIES OF THE PHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF SCHOOLCHILDREN). IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 15-21.

20. Azimxojayevich, I. I. J. (2022). Training of Personnel in the Field of Physical Education and Sports. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 15, 156-160.

21. Исломов, И. (2023). АНАТОМО-ФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ШКОЛЬНИКОВ МЛАДШЕГО, ПОДРОСТКОВОГО И ЮНОШЕСКОГО ВОЗРАСТА. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(4), 596-600.

22. Исломов, И. А. (2022). ИССЛЕДОВАНИЕ ДВИГАТЕЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ И ИНТЕРЕСА К ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ У УЧАЩИХСЯ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛ. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(25), 80-85.

23. Islamov, I. A. J., & Parpiev, O. A. (2020). SOME MODERN PEDAGOGICAL FEATURES OF THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING OF THE TEACHER OF PHYSICAL CULTURE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(1), 313-316.

24. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). РОЛЬ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СЕМЬЕ. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 1270-1275.

25. Исломова, Н. Л. (2022). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ. IJTIMOYIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 12-17.

26. Исломов, И. (2023). НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИГРОВОГО МЕТОДА НА УРОКАХ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ У ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА.(ОСОБЕННОСТИ ФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА). Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(6 Part 3), 176-183.

27. Исломов, И. (2023). ДИНАМИКА ТЕХНИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОВ В ГРУППАХ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 723-728.

28. Islomxo, I., & Madaminovich, D. E. (2023). 10-12 YOSHLI SPORTCHILARDA TEZKORLIK SIFATLARINI TARBIYALASHNING NAZARIY VA AMALIY USLUBLARI. ЎЗБЕК О'ҚИТУВЧИ, 3(31), 33-38.

29. Исломов, И. А., & Джураев, Э. М. (2023). ВЛИЯНИЕ ФУТБОЛА НА ФИЗИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ И ЗДОРОВЬЕ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. О'ЗБЕКИСТОНДА ФАНЛАРАРО ИННОВАТСИЯЛАР ВА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 2(21), 405-410.

30. Azimxo'jayevich, I. I. J., & Madaminovich, D. E. (2023). О 'RTA МАКТАВ О 'QUVCHILARINI JISMONIY TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. О'ЗБЕКИСТОНДА ФАНЛАРАРО ИННОВАТСИЯЛАР ВА ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ, 2(21), 225-231.